



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024-YIL YANVAR-DEKABR

SURXONDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2025-yilning 1-yanvar holatiga Surxondaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 822 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 462 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 25,4 % i Termiz shahrida joylashgan.

2025-yil 1-yanvar holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Termiz sh.	462
Termiz t.	150
Denov t.	143
Jarqo'rg'on t.	142
Sariosiyo t.	135
Boysun t.	114
Qumqo'rg'on t.	107
Angor t.	101
Sho'rchi t.	81
Sherobod t.	78
Qiziriq t.	72
Muzrabot t.	71
Oltinsoy t.	66
Uzun t.	57
Bandixon t.	43

1 039

402

381

Bino va inshootlar qurilishi


Fuqarolik obyektlarini qurish

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Termiz tumanida – 150 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 8,2 %), Jarqo'rg'on tumanida 142 ta (8,0 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-dekabr uchun)

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 12 058,6 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ni tashkil etdi.



2020
4 774,7
mlrd soʻm
109,0 %



2021
5 868,4
mlrd soʻm
112,9 %

2022
6 521,8
mlrd soʻm
101,6 %


Oldingi yilning mos davriga nisbatan

2023
10 880,8
mlrd soʻm
110,5 %

2024
12 058,6
mlrd soʻm
108,8 %



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari *

**Hududlarning hajmi va 2023-yilning mos davriga nisbati,
mlrd so‘m va foizda**

	Qurilish ishlari, mlrd so‘m *	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	12 058,6	108,8	100,0
Termiz sh.	2 596,6	102,2	21,5
tumanlar:			
Oltinsoy	181,5	105,7	1,5
Angor	319,1	108,4	2,6
Bandixon	152,2	107,7	1,3
Boysun	546,8	109,5	4,5
Muzrabot	273,4	106,8	2,3
Denov	754,7	109,9	6,3
Jarqo‘rg‘on	467,9	103,6	3,9
Qumqo‘rg‘on	331,0	120,0	2,7
Qiziriq	311,6	156,4	2,6
Sariosiyo	828,3	100,3	6,9
Termiz	607,9	101,2	5,0
Uzun	201,8	121,3	1,7
Sherobod	394,2	107,4	3,3
Sho‘rchi	237,9	103,5	2,0


)* hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida xususan, Termiz shahri (2 596,6 mlrd so‘m), Denov tumani (754,7 mlrd so‘m) va Sariosiyo tumanida (828,3 mlrd so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,4 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,0 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 88,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,6 % ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 139,4 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,9 % i yoki 9 269,3 mlrd soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

865,2 mlrd soʻm Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 865,2 mlrd soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,3 % ni tashkil etdi.

4 311,3 mlrd soʻm Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 4 311,3 mlrd soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 46,5 % ni tashkil etdi.

4 092,8 mlrd soʻm Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 4 092,8 mlrd soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 44,2 % ni tashkil etdi.


Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – 9 217,6 mlrd so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,3 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,0 % punktga ko'payib, 45,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,5 % punktga kamayib, 52,4 % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, *2 175,2 mlrd so'm*




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 40,2 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 17,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 59,7 % (17,8 % punktga kamayish).

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, **665,8 mlrd so'm**




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi va 8,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 91,7 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga ko'paydi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Qurilish ishlari * hajmining tarkibi, mlrd so'mda



)* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
127,8 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
108,0 %




Norasmiy sektor

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
106,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 142,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 127,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,3 % ga ko'payib, 9,5 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari *

Hududlarning hajmi *, mlrd soʻmda



)* hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Jamiga nisbatan ulushi



42,6 %

Sariosiyo tumani



3,5 %

Termiz shahri




19,4 %

Muzrabot tumani

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 3,5 % i), Sariosiyo tumani (42,6 %) va Muzrabot tumanida (19,4 %) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 50,5 % i to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,0 % ni tashkil etgan holda 6 088,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar *

Hududlarning hajmi *, mlrd so‘m



)* hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Termiz shahri



Denov tumani




Boysun tumani

Ma'lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Termiz shahrida (2 390,7 mlrd so‘m), Denov tumanida (455,6 mlrd so‘m) va Boysun tumanida (362,9 mlrd so‘m) qayd etildi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 40,0 % ni yoki 4 828,3 mlrd soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,0 % ni tashkil etdi. Shundan 3 703,6 mlrd soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,6 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 389,1 mlrd soʻmni va 98,9 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 735,6 mlrd soʻmni va 111,9 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor *

Hududlarning hajmi *, mlrd soʻmda

Surxondaryo viloyati

Termiz sh.	115,1	
Oltinsoy	47,5	
Angor	123,5	
Bandixon	61,8	
Boysun	154,7	
Muzrabot	150,1	
Denov	258,9	
Jarqoʻrgʻon	196,5	
Qumqoʻrgʻon	160,2	
Qiziriq	62,0	
Sariosiyo	225,9	
Termiz	159,0	
Uzun	73,2	
Sherobod	252,7	
Shoʻrchi	109,2	

)* hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



258,9 mlrd soʻm
Denov tumani



225,9 mlrd soʻm
Sariosiyo tumani




154,7 mlrd soʻm
Boysun tumani


Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Denov tumanida (258,9 mlrd soʻm), Sariosiyo tumanida (225,9 mlrd soʻm) va Boysun tumanida (154,7 mlrd soʻm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-dekabr oylaridagi hajm, *mlrd so'mda*



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 417,4 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 11 641,2 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,5 % va 96,5 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Oltinsoy tumanida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 94,2 % i), Angor tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 91,4 % i) va Boysun tumanida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 94,6 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. 76 225-65-59 (7520)